

Sulton Ahmad Mirzo



Sulton Ahmad Mirzo

(1451 yil, Samarqand – 1494 yil, Oqsuv mavzesi, O'ratepa)

(1469-1494)

Temuriylardan bo'lgan Movarounnahr hukmdori (1469-1494). **Abu Said Mirzoning** katta o'g'li. Onasi – **O'rda Bug'a Tarxonning** qizi. Otasi unga Samarqand va Buxoro viloyatlari hokimligini bergan. Keyinchalik Toshkent, Shohruhiya va Sayramni o'z tasarrufiga kiritgan. Toshkent va Sayramni ukasi **Umar Shayx Mirzoga** topshirgan. Xo'jand bilan O'ratepa ham bir necha muddat uning tasarrufida bo'lgan. 1493 yil Sulton Ahmad Mirzo kuyovi, Toshkent xoni Sulton Mahmudxon bilan ittifoq tuzib Andijonga – Umar Shayx Mirzoga qarshi yurish boshlaydi, ular Andijon, Axsi va Marg'ilonni qamal qiladilar. Shu paytda Axside Umar Shayx Mirzo to'satdan vafot etib, taxtga 12 yoshli Bobur o'tirgan. Bek va amirlar xalqni dushmanga qarshi safarbar etadilar. Sulton Mahmudxon Toshkentga qaytib ketgan. Sulton Ahmad Mirzo **Boburga** Farg'ona hukmronligini "in'om" etib Samarqandga qaytgan, biroq O'ratepaga yetganda vafot etgan. Sulton Ahmad Mirzo Movarounnahrda nufuzi nihoyatda baland bo'lgan **Xoja Ahromi** o'ziga pir tutgan. **Oysha Sulton begim** va **Ma'suma Sulton begim** ismli qizlari **Boburning** xotinlari bo'lgan.

2023-10-30 00:11:26